Geografik salohiyat nazariy salohiyatning hududga nisbatan hajmidir. Texnologik salohiyat bu qishloq xo'jaligidagi ilg'or texnika va texnologiyalar orqali erishiladi. Iqtisodiy salohiyat texnik-texnologik salohiyatdan iqtisodiy samaradorlik orqali foydalanishni nazarda tutadi. Shu bilan birgalikda, iqtisodiy salohiyat o'z ichiga ijtimoiy va institutsional holatlarni ham o'z ichiga oladi.

Bunga qo'shimcha ravishda, A.Lopez salohiyat turlaridan biri bo'lgan iqtisodiy salohiyatga e'tibor qaratib o'tgan [6]. Ular iqtisodiy salohiyatning muhim bosqichlari sifatida qishloq xo'jaligi hududining asosiy yo'lga nisbatan joylashish va transport tizimi katta ahamiyatga ega deb hisoblaydilar.

B.Griffitx texnik-texnologik salohiyatni o'sha sohada, sektorda mavjud bo'lgan maksimum imkoniyatlar yig'indisi sifatida ta'riflaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, texnik-texnologik salohiyat deganda nafaqat texnikalar soni foydalaniladigan texnologiyalar balki ulardan o'z navbatida qanchalik samarali foydalanishni ham anglatadi [5].

Qishloq xo'jaligining rivojlanishi bevosita iqlim o'zgarishi jarayonlariga chambarchas bog'liq. Shu sababli qishloq xo'jaligida salohiyat tushunchasini iqlim o'zgarishi naqtai nazaridan ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir [5]. M.V.Rosegrant va boshqalarning fikricha [8], texnik-texnologik salohiyat bu hozirgi kundagi texnologiyalar yordamida iqlim o'zgarishiga sabab bo'ladigan turli xil moddalarning nazariy miqdorini va ko'lamini kamaytirish imkoniyati sifatida qaraladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining texnologik jarayoni texnika hisobiga amalga oshiriladi, bundan kelib chiqqan holda quyidagi iqtisodiy kategoriya taklif etiladi: «texnik-texnologik salohiyat» - qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda texnika vositalarining muayyan vaqt davomida texnologik jarayonlarni bajarish qobiliyati yoki imkoniyatidir. Texnik-texnologik salohiyat bu texnikaning miqdori va sifati hamda texnologiya darajasidir.







## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi manbalar va uslublardan foydalanildi:

Ma'lumotlar manbai: Andijon viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasining statistik ma'lumotlari asosida 2019–2025-yillar uchun umumiy paxta maydonlari, suv tejoyvchi va an'anaviy sug'orish tizimlari qamrovi, hosildorlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Daladagi tajribalar: Izboskan tumanidagi "Sodiq Avaz" fermer xo'jaligi misolida plyonka ostiga ekish va tomchilatib sug'orish texnologiyalari bo'yicha monografik tadqiqot o'tkazilib, xarajatlar tarkibi va iqtisodiy samara hisoblab chiqildi.

Tahlil usullari: qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari (foyda, rentabellik, suv unumdorligi, 1 m<sup>3</sup> suvga to'g'ri keladigan daromad va foyda, 1 gektarga to'g'ri keladigan xarajatlar) qo'llanildi.

Hududiy baholash: viloyat tumanlari kesimida suv tejoyvchi texnologiyalar ulushi va ularning paxta yetishtirish samaradorligiga ta'siri qiyosiy tahlil qilindi.

## TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

1. Xitoy texnologiyasi asosida mahalliy va xorijiy g'oz'za navlarini yetishtirish tahlili. Qishloq xo'jaligida texnik-texnologik salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirishda Andijon viloyatida Xitoy texnologiyasi asosida yetishtiruvchi klaster va fermer xo'jaliklari misol tarikasida keltirishimiz mumkin. Andijon viloyatida 2025-yilga mo'ljallangan mahalliy va xorijiy g'oz'za navlarini Xitoy texnologiyasi asosida yetishtiruvchi klaster va fermer xo'jaliklari soni 943 tani tashkil etib, shundan xorijiy nav yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari soni 424 ta, mahalliy nav yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari soni 519 tani tashkil etgan.

### 1-jadval

**Andijon viloyatida xorijiy va mahalliy g'oz'za navlarini Xitoy texnologiyasi asosida yetishtiruvchi klaster va fermer xo'jaliklari**

| №  | Tuman nomi   | Umumiy paxta maydoni, ga | shundan        |                |
|----|--------------|--------------------------|----------------|----------------|
|    |              |                          | Xorijiy nav    | Mahalliy nav   |
| 1  | 2            | 3                        | 4              | 5              |
| 1  | Andijon      | 1751                     | 780,8          | 970            |
| 2  | Baliqchi     | 2177                     | 1664,0         | 513,0          |
| 3  | Buloqboshi   | 972                      | 486,1          | 486,3          |
| 4  | Bo'ston      | 1118                     | 459,3          | 659,0          |
| 5  | Jalaquduq    | 2000                     | 905,0          | 1095,3         |
| 6  | Izboskan     | 3934                     | 2866,0         | 1067,6         |
| 7  | Ulug'nor     | 3500                     | 2000,0         | 1500,0         |
| 8  | Marxamat     | 1251                     | 251,3          | 1000,0         |
| 9  | Oltinko'l    | 1808                     | 1306,7         | 500,9          |
| 10 | Paxtaobod    | 1538                     | 560,7          | 977,4          |
| 11 | Xo'jaobod    | 928                      | 508,5          | 419,9          |
| 12 | Shaxrixon    | 1866                     | 583,0          | 1283,0         |
| 13 | Qo'rg'ontepa | 1797                     | 297,0          | 1500,0         |
|    | <b>Jami:</b> | <b>24641</b>             | <b>12668,3</b> | <b>11972,5</b> |

Viloyatda umumiy paxta maydoni 24 641 gektarni tashkil etib, shundan klaster va fermer xo'jaliklari tomonidan Xitoy texnologiyasi asosida xorijiy g'oz'za navlari





12 668,3 gektar (51,4 %), mahalliy gʻoʻza navlari esa 11 972,5 gektar (48,6 %) maydonda yetishtirilgan. Tahlil natijalariga koʻra, xorijiy gʻoʻza navlari asosida paxta yetishtirilgan yer maydonlarining eng katta ulushi Baliqchi, Izboskan va Oltinkoʻl tumanlariga (taxminan 70 % gacha), eng kam ulushi esa Qoʻrgʻontepa va Marhamat tumanlariga (20 % atrofida) toʻgʻri kelmoqda [11] (1-jadval).

Xitoyning serhosil paxta navlari mahalliy klasterlarda sinovdan oʻtkazilib, yuqori natijalar bermoqda. Mahalliy navlar Xitoy texnologiyasi asosida yetishtirilganda hosildorlik 30–40 sentner/ga darajasiga, xorijiy navlarda esa 50–80 sentner/ga gacha oshgani qayd etilmoqda.

Bu innovatsion texnologiyalarni qoʻllash ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli oshirishini koʻrsatadi.

2. Suv tejoyvchi sugʻorish texnologiyalarining hududiy tahlili. Andijon viloyatining paxtachilikda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va barqaror iqtisodiy oʻsishga erishish yoʻlidagi muhim tendensiyalar 2-jadvalda aks ettirilgan. Suv tejoyvchi sugʻorish texnologiyalarining joriy etilishi va kelgusida kengaytirilishining iqtisodiy oqibatlari tumanlar kesimida baholandi.

2-jadval

Andijon viloyati tumanlari boʻyicha umumiy paxta maydonlari va ularda qoʻllaniladigan sugʻorish texnologiyalari

| №  | Tuman nomi   | Umumiy paxta maydoni (ga) | 2019-2024 y. Suv tejoyvchi sugʻorish (ga) | Anʼanaviy sugʻorilgan maydon (ga) | 2025 y. Tomchilatib sugʻorish mumkin (ga) | Suv tejoyvchi sugʻorish ulushi (2024, %) |
|----|--------------|---------------------------|-------------------------------------------|-----------------------------------|-------------------------------------------|------------------------------------------|
| 1  | Andijon      | 1751                      | 780,8                                     | 970,2                             | 1259,7                                    | 44,6                                     |
| 2  | Baliqchi     | 2177                      | 1664,0                                    | 513,0                             | 2177,0                                    | 76,4                                     |
| 3  | Buloqboshi   | 972                       | 486,1                                     | 485,9                             | 883,4                                     | 50,0                                     |
| 4  | Boʻston      | 1118                      | 459,3                                     | 658,7                             | 642,0                                     | 41,1                                     |
| 5  | Jalaquduq    | 2000                      | 905,0                                     | 1095,0                            | 1898,3                                    | 45,3                                     |
| 6  | Izboskan     | 3934                      | 2866,0                                    | 1068,0                            | 1219,6                                    | 72,9                                     |
| 7  | Ulugʻnor     | 3500                      | 2000,0                                    | 1500,0                            | 511,8                                     | 57,1                                     |
| 8  | Marxamat     | 1251                      | 251,3                                     | 999,7                             | 62,8                                      | 20,1                                     |
| 9  | Oltinkoʻl    | 1808                      | 1306,7                                    | 501,3                             | 585,1                                     | 72,3                                     |
| 10 | Paxtaobod    | 1538                      | 560,7                                     | 977,3                             | 772,6                                     | 36,5                                     |
| 11 | Xoʻjaobod    | 928                       | 508,5                                     | 419,5                             | 663,5                                     | 54,8                                     |
| 12 | Shaxrixon    | 1866                      | 583,0                                     | 1283,0                            | 754,1                                     | 31,2                                     |
| 13 | Qoʻrgʻontepa | 1797                      | 297,0                                     | 1500,0                            | 1563,8                                    | 16,5                                     |
|    | Jami:        | 24641                     | 12668,3                                   | 11972,7                           | 12993,5                                   | 51,4                                     |

2024-yil holatiga koʻra, viloyatda paxta maydonlarining 51,4 foizida suv tejoyvchi sugʻorish tizimlari joriy etilgan boʻlib, bu suv resurslariga boʻlgan talabni kamaytirish, suv taʼminoti xarajatlarini optimallashtirish va qurgʻoqchilik xavfini pasaytirish orqali sezilarli iqtisodiy foyda keltirishi mumkin. Anʼanaviy sugʻorish usullariga nisbatan suvning 30–60 % gacha kamroq sarflanishi fermer xoʻjaliklarining suv uchun toʻlovlarini kamaytiradi va irrigatsiya tizimlariga boʻlgan bosimni yengillashtiradi. Tumanlar oʻrtasidagi farqlanish iqtisodiy rivojlanish darajasi, fermerlarning





investitsiya qilish qobiliyati va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlashning turlicha ekanligidan dalolat beradi. Suv tejavchi texnologiyalar yuqori ulushga ega bo'lgan tumanlarda (Baliqchi, Izboskan, Oltinko'l) paxta yetishtirishning rentabelligi va resurslardan foydalanish samaradorligi ancha yuqori bo'lishi kutiladi. Aksincha, suv tejavchi texnologiyalar pastroq darajada joriy etilgan tumanlarda (Qo'rg'ontepa, Marxamat, Shaxrixon) suvga bog'liq xarajatlar va resurslarning isrofi yuqori bo'lishi mumkin, bu esa fermer xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimolini oshiradi [11].

2025-yilga kelib suv tejavchi sug'orishning deyarli to'liq qamrab olinishi (99,9 %) viloyat paxtachilik sektorida tub iqtisodiy o'zgarishlarga olib kelishi kutilmoqda. Yangi tomchilatib (11 647,3 ga) va diskret (6 060,6 ga) sug'orish tizimlarining joriy etilishi suv sarfini keskin kamaytirishi bilan birga, quyidagi iqtisodiy afzalliklarni ta'minlaydi:

- suv xarajatlarining minimallasuvi;
- hosildorlikning oshishi va daromadlarning ko'payishi;
- o'g'itlardan foydalanish samaradorligining ortishi (fertigatsiya);
- mehnat xarajatlarining kamayishi va jarayonlarning avtomatlashtirilishi;
- mahsulot sifatining yaxshilanishi va bozor narxining oshishi;
- ekologik barqarorlik va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik.

3. “Sodiq Avaz” fermer xo'jaligi misolida Xitoy texnologiyasining iqtisodiy samaradorligi. Qishloq xo'jaligida texnika texnologiyalar samaradorligini oshirishda Andijon viloyatining Izboskan tumani Yangi qishloq massivida faoliyat yurituvchi “Sodiq Avaz” fermer xo'jaligida Xitoyning innovatsion texnologiyasida plyonka ostiga chigit ekib paxta yetishtirilgan. Natijada, g'o'zani mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish, sug'orish me'yori 2 baravaraga kamayishi, qator oralariga ishlov berish, xashoratlarga qarshi vositalardan foydalanilmaganligi tejamkorlikka olib kelgan. Xitoydan keltirilgan biokimyoviy stimulyatorlar bilan ishlanganligi sababli o'simliklar an'anaviy texnologiyada ochiqqa ekilgan g'o'zaga nisbatan 2-3 baravar jadal rivojlangan (3-jadval).

### 3-jadval

**Xitoyning innovatsion texnologiyasida plyonka ostiga chigit ekib paxta yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi (2025 yil)**

| T/r | Ko'rsatkichlar                                                                               | O'lchov birligi | Maxalliy chigit      | Xitoy chigit         |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|----------------------|----------------------|
|     |                                                                                              |                 | 1 gektarga ming so'm | 1 gektarga ming so'm |
| 2   | Hosildorlik, s/ga                                                                            | s/ga            | 34                   | 55                   |
| 3   | Yalpi hosil                                                                                  | tonna           | 3,4                  | 5,5                  |
| 4   | Jami xarajat                                                                                 | ming.so'm       | 24 891               | 29947                |
|     | shu jumladan:                                                                                |                 |                      |                      |
| a)  | Ish haqi                                                                                     | ming.so'm       | 9 798                | 14 024               |
| b)  | Mineral o'g'itlar                                                                            | ming.so'm       | 3 818                | 3 819                |
| v)  | O'simliklarni himoya qilish, defoliantlar, stimulyatorlar va agrokimyoviy xizmatlar xarajati | ming.so'm       | 969                  | 1 170                |
| ye) | Urug'lik qiymati                                                                             | ming.so'm       | 945                  | 1 755                |







|     | miqdori                       | kg        | 45     | 27    |
|-----|-------------------------------|-----------|--------|-------|
| yo) | Mexanizatsiya xizmati qiymati | ming.so'm | 2 675  | 1 675 |
| j)  | YoMM qiymati                  | ming.so'm | 2 976  | 2 220 |
|     | miqdori (dizel yonilgisi)     | kg        | 248    | 185   |
| z)  | Salafan (plyonka)             | ming.so'm |        | 1 300 |
| 5   | Daromad                       | ming.so'm | 26 248 | 42460 |
| 6   | Foyda                         | ming.so'm | 1357   | 12513 |
| 7   | Iqtisodiy samara              | ming.so'm | 11157  |       |
| 8   | Rentabellik                   | foizda    | 5,5%   | 41,8% |

Xitoy texnologiyasini qo'llash hisobiga foyda 11,3 martaga oshgan, mexanizatsiya qiymati 62,6%, yoqilg'i-moylash materiallari 74,6% ga kamayganligi va iqtisodiy samarani ya'ni foyda o'simi 8297 ming.so'mni tashkil etgan. Bundan tashqari hosildorlik 1,6 martaga oshib gektaridan 21 sentner qo'shimcha xosil olingan.

Monografik tadqiqotlar Andijon viloyatining Izboskan tumanida faoliyat yurituvchi "Sodiq Avaz" fermer xo'jaligida olib borilgan. Umumiy paxta ekilgan maydoni 56,4 gektarni tashkil etib shundan 15 gektar maydoni tomchilatib sugorilgan. Tomchilatib sugorish texnologiyasini qo'llash hisobiga paxta yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi ilmiy asoslangan (4-jadval).

#### 4-jadval

**"Sodiq Avaz" fermer xo'jaligida paxtani  
tomchilatib sug'orish samaradorligi (2025 yil)**

| №  | Ko'rsatkichlar                                                  | Variantlar          |                       |
|----|-----------------------------------------------------------------|---------------------|-----------------------|
|    |                                                                 | An'anaviy sug'orish | Tomchilatib sug'orish |
| 1. | Umumiy suv sarfi, m <sup>3</sup> /ga                            | 6000                | 3600                  |
| 2. | Hosildorlik, s/ga                                               | 34                  | 55                    |
| 3. | Suv unumdorligi, s/1000 m <sup>3</sup>                          | 5,7                 | 15,3                  |
| 4. | Suv unumdorligi olingan daromadga nisbatan, sum/ m <sup>3</sup> | 4374,7              | 11794,4               |
| 5. | Suv unumdorligi olingan foydaga nisbatan, so'm/ m <sup>3</sup>  | 226,2               | 3475,8                |
| 6  | Koplash muddati (PP), yil                                       |                     | 2,4                   |

Fermer xo'jaligida tomchilatib sugorish texnologiyasini qo'llash natijalariga ko'ra 2025-yili an'anaviy va tomchilatib sug'orish variantlarida umumiy suv sarfi, hosildorlik, suv unumdorligi hamda 1 m<sup>3</sup> suvga to'g'ri keladigan daromad va foyda ko'rsatkichlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Bir gektar g'o'za uchun suv sarfi tomchilatib sug'orishda 3,6 ming. m<sup>3</sup> ni an'anaviy sug'orishda esa 6,0 ming. m<sup>3</sup> ni tashkil etib, 2,4 ming m<sup>3</sup> yoki 40 foiz suv resurslari tejaldi.

Mineral o'g'itlar 40-45 foizga tejaldi oddiy sug'orishda 1 gektar g'o'za maydoniga 600-700 kg azot o'g'iti, 150 kg fosfor, 100 kg kaliy sarflansa, tomchilatib sug'orishda 250-300 kg azot, 150 kg fosfor, 50 kg kaliy sarflanadi. Mineral o'g'itlarning o'zlashtirilishi 90-95 foizni, an'anaviy sug'orishda esa 30-38 foiz bo'ldi. Sug'orish vaqtida eritilgan o'g'itlar bevosita ildiz zonasiga kirib, ozuqa moddalar tez so'rildi. Bu o'g'it berishning eng samarali usulidir.





Qishloq xo'jaligi ekinlaridan olinadigan hosil oshdi va sifati yaxshilandi, tomchilatib sug'orishda hosilning erta pishish kuzatildi. Namning o'simliklar ildiz tizimiga aniq tushishi va o'g'itlar to'liq o'zlashtirilishi hisobiga an'anaviy sug'orishga nisbatan hosildorlik 60 foizga yuqori bo'ldi. Tomchilatib sugorishda suv unumdorligi 9,6 sentner 1000m<sup>3</sup> yoki 2,6 marta, suv unumdorligi olingan foydaga nisbatan 15,3 marta oshgan.

Texnik-texnologik salohiyatdan foydalanishni rivojlantirish bo'yicha yo'nalishlar. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Andijon viloyatida texnik-texnologik salohiyatdan samarali foydalanish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha takomillashtirilishi lozim:

1. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va texnika bazasini modernizatsiya qilish:
  - ❖ yangi avlod traktorlari, kombaynlar va avtomatlashtirilgan texnikalarni fermer xo'jaliklariga yetkazib berish;
  - ❖ texnikalarni lizing asosida taqdim etishni kengaytirish;
  - ❖ xorijiy tajribalar asosida yuqori samarali texnikalarni mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish.
2. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va aniq dehqonchilikni rivojlantirish:
  - ❖ dronlar va sensorlar yordamida tuproq va ekin maydonlarini monitoring qilish;
  - ❖ GPS va GIS tizimlari orqali dalalarni raqamlashtirish va fermer xo'jaliklarini boshqarish jarayonini avtomatlashtirish;
  - ❖ avtomatlashtirilgan irrigatsiya tizimlari orqali suv resurslaridan tejamkor foydalanish.
3. Energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni qo'llash:
  - ❖ tomchilatib sug'orish va zamonaviy irrigatsiya tizimlarini keng joriy etish;
  - ❖ qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (quyosh va shamol energiyasi) foydalanish;
  - ❖ agroteknologiyalarning chiqindisiz va ekologik barqaror modellarni shakllantirish.
4. Kadrlar tayyorlash va agrar sohada innovatsion ta'limni rivojlantirish:
  - ❖ agrar universitetlar va tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni kuchaytirish; fermerlarni texnik va texnologik yangiliklardan foydalanish bo'yicha o'qitish va malakasini oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish;
  - ❖ qishloq xo'jaligi sohasida startaplar va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

## **XULOSA VA TAVSIYALAR**

Andijon viloyatida paxtachilikka Xitoy texnologiyalarini joriy etish bo'yicha olib borilgan tajribalar ularning samaradorligini yaqqol namoyon qildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, plyonka ostiga ekish va tomchilatib sug'orish texnologiyalari an'anaviy usullarga nisbatan hosildorlikni 1,5–2 barobar oshirishi hamda suv sarfini 40–50 foizgacha kamaytirishi mumkin. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini





oshirilishi ba tannarxining pasayishi, mehnat sarfining qisqarishi va fermer xo‘jaliklari sof foydasining o‘rtishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ayrim fermer xo‘jaliklarida texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tajriba yetishmasligi, agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida bajarmaslik va ekish sxemalariga to‘liq amal qilinmasligi natijadorlikni pasaytirayotgan omillar sifatida qayd etilmoqda. Bu holat innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishda malaka oshirish, amaliy treninglar, dala-seminarlar va agrotexnik nazoratni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, Andijon viloyatida Xitoy texnologiyalari asosida mahalliy va xorijiy g‘o‘za navlarini yetishtirish tajribasi yuqori samara berayotgani ilmiy-amaliy jihatdan asoslandi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.07.2022 yildagi “Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6099443>
2. Abdurahmonov H. Xitoy texnologiyasi bilan paxta yetishtirish afzalliklari. “Oqdaryo ovozi” gazetasi. 15.01.2025 y. <https://oqdaryoovozi.uz/do/57913-d.html>
3. Binam, J. N., Tonye, J., Nyambi, G., & Akoo, M. (2004). Factors affecting the technical efficiency among smallholder farmers in the slash and burn agriculture zone of Cameroon. *Food policy*, 29(5), p: 531-545.
4. Bentsen, N. S., & Felby, C. (2010). Technical potentials of biomass for energy services from current agriculture and forestry in selected countries in Europe, the Americas and Asia. *Forest & Landscape*.
5. Griffith, B., Long, N., Torcellini, P., Judkoff, R., Crawley, D., & Ryan, J. (2007). Assessment of the technical potential for achieving net zero-energy buildings in the commercial sector. Technical Report NREL/TP-550-41957. The USA.
6. Lopez, A., Roberts, B., Heimiller, D., Blair, N., & Porro, G. (2012). US renewable energy technical potentials: a GIS-based analysis. NREL. The USA
7. Reddy, P. K., & Ankaiah, R. (2005). A framework of information technology-based agriculture information dissemination system to improve crop productivity. *Current Science*, 88(12), p: 1905-1913.
8. Rosegrant, M. W., Ewing, M., Yohe, G., Burton, I., Saleemul, H., & Valmonte-Santos, R. (2008). Climate change and agriculture: threats and opportunities. (Нидерландия).
9. Smeets, E. M., Faaij, A. P., Lewandowski, I. M., & Turkenburg, W. C. (2007). A bottom-up assessment and review of global bio-energy potentials to 2050. *Progress in Energy and combustion science*, 33(1), 56-106. The Netherlands (Niderlandiya)
10. Shernazarov A. Sirdaryoda Xitoy texnologiyasi asosida paxta yetishtirish ommalashmoqda. “Xalq so‘zi” gazetasi. 01.05.2024 y. <https://xs.uz/uz/post/sirdaryoda-khitoj-tehnologiyasi-asosida-pakhta-etishtirish-ommalashmoqda>
11. Andijon viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasi statistik hisobotlari asosida 2019–2025-yillardagi ma’lumotlari.





**2026-yil, yanvar. №1-son.**

**Mas’ul muharrir:** Beglayev Uchqun  
**Musahhih:** Boltayev Nurali  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Normurodov Sarvar,  
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havoalarga murojaat qilish mumkin.  
Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [licht-1989@mail.ru](mailto:licht-1989@mail.ru)  
Jurnalning telegram manzili: [t.me/agrobiznes\\_elektronjurnal](https://t.me/agrobiznes_elektronjurnal)  
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000  
Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.



“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali  
2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan. **Litsenziya raqami: №083688**

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,  
Universitet ko‘chasi, 2-uy**